

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.M.Bozorova	
Sayyid Sharif Jurjoniyning ontologik va gnoseologik qarashlari.....	115
L.S.Sultonova	
Sharq allomalarining ilmiy merosida bag'rikenglik va murosa madaniyati masalasi va uning yurtimiz taraqqiyotida tutgan o'rni.....	119
U.K.Kurbanova	
Abu Ismoil Abdulloh Ansoriy tasafuviy qarashlarining falsafiy tahlili	124
M.H.Mo'minova	
Ibn Sino asarlari va risolalarining ilm-fan taraqqiyotida tutgan o'rni	128
K.J.Ochilova	
Imom At-Termiziya oid tadqiqotlarning ilmiy tahlili	132
B.X.Karimov	
Ongni boshqarish falsafasi.....	136
R.S.Raupova, Sh.Bobokalonova	
Abu Ali Ibn Sino buyuk faylasuf va gumanist olim	141
P.X.Qaxorov	
Zamonaviy jamiyatda inson qadri va axloqiy me'yorlarning o'zgarishi	147
U.M.Paxriddinov	
Globalashuv jarayonlarining O'zbekistondagi mehnat migratsiyasiga ta'sirining ijtimoiy-falsafiy tahlili	152
Z.B.G'ulomov	
Dezinformatsion ziddiyatlar sharoitida yolg'on axborotlarni ijtimoiy fikr va jamoatchilik nazorati asosida tartibga solish istiqbollari.....	158
A.A.Tojiddinov	
Abu Ishoq Kalobodiy ilmiy merosining zamonaviy tadqiqotlarda o'rganilishi masalalari	164
G.A.Qamariddinova	
"Rashahotu aynil-hayot" asaridagi rashhalarda jamiyat rivojlanishiga doir g'oyalarning falsafiy tahlili	172
H.H.Yuldashxodjaev	
Musoxonxoja Dahbidiy asarlarida Xojagon-Naqshbandiya ta'limotidagi g'oyalarning qiyosiy tahlili.....	175
H.H.Yuldashxodjaev	
Musoxonxoja Dahbidiy asarlarida Xojagon-Naqshbandiya ta'limotidagi g'oyalarning qiyosiy tahlili (2-qism).....	180
Z.I.Narziyev	
Aziziddin Nasafiyning "Tanzil" asari - tasavvuf falsafasiga oid muhim manba	185
M.M.Mamasaliyev	
Postmodern jamiyatda o'zgalarga toqatlilik qadriyatlarining falsafiy-intellektual asoslari.....	189

SIYOSAT

T.A.Azizov	
Favqulodda ekologik vaziyatlarni bartaraf etishga oid davlat siyosatini amalga oshirish mexanizmlarining xorij tajribalarini qo'llash imkoniyatlari.....	193
S.U.Yuldashev	
Davlat boshqaruvida ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning ratsionallashtirish	197
O'.N.Ahmedova	
Kuchli ijtimoiy siyosat va ma'naviy tarbiya strategiyasi	201
X.R.Ikramov	
Yangi O'zbekistonda fuqarolik xizmati sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini modernizatsiyalash zaruriyati.....	205
A.M.Abjalov	
Jamoat xavfsizligi tizimida axborot texnologiyalarni joriy etishning ijtimoiy-siyosiy mohiyati	210
G.B.Umarova, A.Nurullaeva	
Mahalla – totuvlik va bag'rikenglik omili: Markaziy Osiyo mintaqasi tajribasi	214
S.S.Yakubov	
Kanada: milliy birlikka erishish tajribasi	218



UO'K: 352.07

**FAVQULODDA EKOLOGIK VAZIYATLARNI BARTARAF ETISHGA OID DAVLAT
SIYOSATINI AMALGA OSHIRISH MEKANIZMLARINING XORIJ TAJRIBALARINI QO'LLASH
IMKONIYATLARI**

**ВОЗМОЖНОСТЬ ПРИМЕНЕНИЯ ОПЫТА ХОПИ МЕХАНИЗМОВ РЕАЛИЗАЦИИ
ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКИ ПО ЛИКВИДАЦИИ ЧРЕЗВЫЧАЙНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ
СИТУАЦИЙ**

**THE POSSIBILITY OF APPLYING KHOPIJ TAJRIBALAP OF STATE POLICY
IMPLEMENTATION MECHANISMS RELATED TO THE ELIMINATION OF EMERGENCY
ENVIRONMENTAL SITUATIONS**

Azizov Tuxtamish A'zamovich 

“ISFT” institutining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, “Gumanitar va tabiiy fanlar” kafedrası professori

Annotatsiya

Ushbu tadqiqotda favqulodda ekologik vaziyatlarni bartaraf etish bo'yicha davlat siyosatini amalga oshirish mexanizmlari va xorijiy tajribalar o'rganilgan. Germaniya, AQSH, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi rivojlangan mamlakatlar tajribasi tahlil qilingan va ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda huquqiy, iqtisodiy va texnologik mexanizmlarni takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan. Xorijiy modellarni mahalliy sharoitga joriy etish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Аннотация

В данном исследовании изучены механизмы реализации государственной политики по ликвидации чрезвычайных экологических ситуаций и международный опыт в этой сфере. Проведен анализ опыта развитых стран, таких как Германия, США, Япония и Южная Корея, а также рассмотрены возможности его адаптации к условиям Узбекистана. В исследовании предложены меры по совершенствованию правовых, экономических и технологических механизмов. Даны рекомендации по внедрению зарубежных моделей в национальную систему управления экологическими рисками.

Abstract

This study examines the mechanisms of implementing state policy for mitigating emergency environmental situations and explores international experience in this field. The research analyzes the experience of developed countries such as Germany, the USA, Japan, and South Korea, and assesses the possibilities of adapting their practices to Uzbekistan's context. The study proposes measures for improving legal, economic, and technological mechanisms. Recommendations are provided on integrating foreign models into Uzbekistan's environmental risk management system.

Kalit so'zlar: favqulodda ekologik vaziyatlar, davlat siyosati, ekologik boshqaruv, xalqaro tajriba, ekologik xavfsizlik, huquqiy mexanizmlar, iqtisodiy vositalar.

Ключевые слова: чрезвычайные экологические ситуации, государственная политика, экологическое управление, международный опыт, экологическая безопасность, правовые механизмы, экономические инструменты.

Key words: emergency environmental situations, state policy, environmental management, international experience, environmental security, legal mechanisms, economic instruments.

KIRISH

Hozirgi globallashuv va sanoatlashuv jarayonlari ekologik muammolarni yanada chuqurlashtirib, tabiiy ofatlar va texnogen halokatlarning kuchayishiga olib kelmoqda. Yer yuzidagi har bir davlat atrof-muhitga ta'sir etuvchi favqulodda vaziyatlarga qarshi samarali choralar ko'rish zarurati oldida turibdi. Bunday vaziyatlarni bartaraf etish va kelgusida ularning oldini olish uchun davlat siyosatida muayyan strategiya va mexanizmlarni ishlab chiqish talab etiladi. Ayniqsa, xalqaro tajribaga tayanish, turli mamlakatlarda o'zini oqlagan modellardan foydalanish ekologik xavf-xatarlarni kamaytirishda muhim omillardan biri hisoblanadi.

Xorijiy mamlakatlar, xususan, Yevropa davlatlari, AQSH, Yaponiya, Janubiy Koreya va boshqa rivojlangan davlatlar ekologik ofatlarga qarshi kurashishda kompleks yondashuvlardan foydalanmoqda. Ular ekologik inqirozlarning oldini olish, favqulodda vaziyatlarda tezkor harakat qilish, ekologik to'lovlar va javobgarlik choralari kuchaytirish kabi samarali siyosatni yuritib kelmoqda. Bu tajribalar nafaqat milliy darajada, balki xalqaro hamkorlik asosida ham amalga oshirilib, bir qator xalqaro tashkilotlar va konvensiyalar orqali mustahkamlanmoqda.

O'zbekistonda ham ekologik vaziyatni yaxshilash va favqulodda holatlarga qarshi kurashish bo'yicha qator tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Lekin bu boradagi davlat siyosati va qonunchilikni rivojlantirish, shuningdek, ilg'or xalqaro tajribalardan samarali foydalanishga ehtiyoj sezilmoqda. Xususan, ekologik xavfsizlikni ta'minlashda moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, favqulodda vaziyatlarga oid prognozlash va monitoring tizimlarini yaxshilash hamda ekologik axborotning oshkoraligini ta'minlash muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Shu bois mazkur tadqiqotda xorijiy davlatlarning favqulodda ekologik vaziyatlarni bartaraf etish bo'yicha davlat siyosatini amalga oshirish mexanizmlari o'rganiladi, ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlari tahlil qilinadi va amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ekologik favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar jahon ilmiy jamoatchiligi tomonidan keng o'rganilgan bo'lib, ularda davlat siyosatining samaradorligini oshirish, huquqiy va iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish hamda xalqaro tajribalardan foydalanish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Masalan, D. Medouz va hammualiflar (Meadows, D. H., Randers, J., & Meadows, D. L., 2004)[1] tomonidan yozilgan *Limits to Growth* asarida global ekologik muammolar tahlil qilingan bo'lib, unda tabiiy resurslardan samarali foydalanish va davlat siyosati orqali barqarorlikni ta'minlash masalalari ko'tarilgan. Shuningdek, E. Ostrom (Ostrom, E., 1990)[2] o'zining *Governing the Commons* asarida ekologik resurslardan foydalanishni boshqarishning kollektiv yondashuvlari haqida so'z yuritib, davlat va mahalliy jamoalar o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlangan. Favqulodda ekologik vaziyatlarga moslashish va ularni samarali bartaraf etish mexanizmlari haqida M. Pelling (Pelling, M., 2011)[3] *Adaptation to Climate Change* asarida aytib o'tilgan bo'lib, u davlat siyosatini o'zgartirish va yangi mexanizmlarni ishlab chiqish zaruriyatini ilmiy asoslab bergan. Shu bilan birga, J. Xandmer va S. Dovers (Handmer, J., & Dovers, S., 2013)[4] *Handbook of Disaster Policies and Institutions* kitobida ekologik va texnogen ofatlarga qarshi kurashish bo'yicha davlat siyosatini shakllantirishda muvaffaqiyatli amaliyotlarning muhim jihatlari ko'rsatib o'tganlar.

O'zbekistonda ekologik xavfsizlik va favqulodda holatlarni bartaraf etish mexanizmlari bo'yicha ham bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, Sh.SH. Otabekov (Otabekov, Sh.SH., 2020)[5] *Ekologik muammolar va ularni huquqiy tartibga solish asarida mamlakatdagi ekologik muammolar, ularni tartibga solish uchun qabul qilingan huquqiy normalar va qonunchilik bazasi tahlil qilingan*. A. Islomov (Islomov, A., 2019) esa *O'zbekistonda ekologik xavfsizlikni ta'minlashning iqtisodiy va huquqiy mexanizmlari asarida mamlakatdagi iqtisodiy vositalar va davlat siyosatining ta'sirini o'rgangan*. U. Bek (Beck, U., 1992)[6] *Risk Society* asarida zamonaviy jamiyatning ekologik va texnogen xavflarga duch kelishi, bu holatda davlat siyosatining o'zgarishi lozimligi haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, J. Sterman (Sterman, J. D., 2012)[7] *Sustaining Sustainability* asarida ekologik barqarorlikka erishish uchun davlat tomonidan tizimli yondashuv ishlab chiqish zarurligi ta'kidlangan. A.N. Nazarov (Nazarov, A.N., 2021)[8] o'zining *Ekologik xavf-xatarlarni boshqarishda davlat siyosatining o'rni* nomli tadqiqotida O'zbekistonda favqulodda ekologik vaziyatlarni bartaraf etish bo'yicha olib borilayotgan davlat siyosatini o'rganib, uni xalqaro tajriba bilan taqqoslagan. Shuningdek, BMT tomonidan nashr qilingan *Global Assessment Report on Disaster Risk Reduction* (UNDRR, 2020)[9] hisobotida dunyo bo'yicha ekologik ofatlar va ularning oldini olish strategiyalari tahlil qilingan.

Ushbu manbalardan ko'rinib turibdiki, ekologik favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish bo'yicha davlat siyosati jahonda turli mexanizmlar asosida amalga oshirilmoqda va bu tajribalardan O'zbekiston sharoitida ham foydalanish imkoniyatlari mavjud.

METODOLOGIYA

Metodologiya qismida ushbu tadqiqotda qo'llanilgan usul va yondashuvlar, ma'lumotlar manbalari hamda tahlil metodlari haqida so'z yuritiladi. Tadqiqotda muqoisaviy tahlil usulidan foydalanildi, ya'ni O'zbekistondagi favqulodda ekologik vaziyatlarni bartaraf etishga oid davlat siyosati xorijiy tajriba bilan taqqoslandi. Xususan, Yevropa mamlakatlari, AQSH, Yaponiya va

SIYOSAT

Janubiy Koreya tajribalari o'rganilib, ularning samaradorlik darajasi baholandi. Shuningdek, tahliliy va tahsiliy usullar orqali favqulodda ekologik vaziyatlarni boshqarishda davlatning o'рни va huquqiy mexanizmlar ko'rib chiqildi.

Tadqiqot davomida asosiy ma'lumot manbalari sifatida xalqaro tashkilotlarning hisobotlari, BMT va Jahon banki tomonidan e'lon qilingan tadqiqotlar, O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari, shuningdek, ilmiy maqolalar va monografiyalardan foydalanildi. Huquqiy tahlil usuli orqali O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ekologik siyosat va uning samaradorligi baholandi.

Bundan tashqari, empirik tahlil usuli orqali ayrim davlatlarning ekologik inqirozlarga qarshi chora-tadbirlari tahlil qilindi, ularning ijobiy va salbiy jihatlari aniqlandi. Shu asosda O'zbekiston sharoitiga mos mexanizmlarni taklif etish maqsad qilindi. Shuningdek, kontent-tahlil usuli yordamida ekologik muammolarga oid xalqaro va milliy nashrlarda berilgan ma'lumotlar o'rganilib, ulardan kerakli xulosalar chiqarildi. Ushbu metodologik yondashuvlar tadqiqot natijalarining asosliliigi va ishonchliliigini ta'minlashga yordam berdi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shundan iboratki, xorijiy mamlakatlarda favqulodda ekologik vaziyatlarni bartaraf etish bo'yicha davlat siyosati samarali ishlab chiqilgan bo'lib, ularda tizimli yondashuv va kompleks chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Yevropa davlatlari, xususan, Germaniya va Fransiya ekologik favqulodda vaziyatlarga qarshi davlat siyosati qonunchilik asosida mustahkamlangan bo'lib, javobgarlik mexanizmlari aniq belgilab qo'yilgan. Shu bilan birga, Yaponiya va Janubiy Koreya tajribasi shuni ko'rsatadiki, tabiiy va texnogen ofatlarga tayyorgarlik ko'rish, ularning oldini olish va tezkor javob berish tizimlari texnologik innovatsiyalar asosida takomillashtirilgan.

AQSH tajribasi favqulodda ekologik vaziyatlarni boshqarishda mahalliy hokimiyatlar va fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtirokini talab etishini ko'rsatdi. Bu erda ekologik inqirozlarga qarshi kurashda davlat va xususiy sektor hamkorligi muhim o'rin tutadi. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar, xususan, BMT, Jahon banki va Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YEXHT) tomonidan ishlab chiqilgan strategiyalar ekologik muammolarni hal qilishda integratsiyalangan yondashuvni talab etishini ko'rsatmoqda.

O'zbekistondagi mavjud holatni tahlil qilish shundan dalolat berdiki, mamlakatda ekologik favqulodda vaziyatlarni boshqarish bo'yicha muayyan islohotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, xalqaro tajribadan to'liq foydalanish va milliy modelni takomillashtirish zarur. Mamlakatda ekologiya sohasida davlat siyosati doirasida bir qator qonunlar va dasturlar qabul qilingan bo'lsa-da, ularning ijrosi, monitoring mexanizmi va moliyalashtirish tizimi yanada mustahkamlanishi kerak. Xususan, ekologik favqulodda vaziyatlarni oldindan prognoz qilish va ularning oldini olish bo'yicha zamonaviy avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy etish, jamoatchilik ishtirokini oshirish va ekologik xabardorlikni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda xorijiy tajribadan foydalanish imkoniyatlari mavjud va ularni mahalliy sharoitlarga moslashtirish orqali ekologik xavf-xatarlarni boshqarish samaradorligini oshirish mumkin. Masalan, Yaponiya va Germaniyaning ekologik inqirozlarga javob berish tizimi o'zbekistonlik mutaxassislar uchun o'rganishga arzigulik tajriba bo'lib, bu modellarni mahalliy sharoitga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, AQShdagi xususiy sektor ishtirokini oshirish mexanizmini O'zbekistonda ham joriy etish mumkin, bu esa ekologik barqarorlikni ta'minlashga katta hissa qo'shadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekistonda favqulodda ekologik vaziyatlarni boshqarish tizimini takomillashtirish uchun davlat siyosatini isloh qilish, texnologik innovatsiyalarni joriy etish va xalqaro tajribadan samarali foydalanish zarur. Shu bilan birga, ekologik muammolarga qarshi kurashda fuqarolik jamiyatining faol ishtirokini ta'minlash va javobgarlik mexanizmlarini kuchaytirish lozim. Bu tadbirlarni amalga oshirish ekologik xavf-xatarlarni kamaytirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, favqulodda ekologik vaziyatlarni bartaraf etish va ularning oldini olish bo'yicha davlat siyosati samarali ishlab chiqilgan mamlakatlarda tizimli yondashuv va zamonaviy boshqaruv mexanizmlari keng qo'llanilmoqda. Xususan, Germaniya, Yaponiya, AQSH va Janubiy Koreya tajribalari shundan dalolat beradiki, davlat tomonidan qabul qilinayotgan strategiyalar ekologik xavf-xatarlarni kamaytirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, ular qonunchilik, moliyalashtirish, texnologik innovatsiyalar va jamoatchilik ishtirokini o'z ichiga oladi.

O'zbekistonda ekologik xavfsizlikni ta'minlash va favqulodda vaziyatlarga qarshi kurashish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, ushbu sohada xalqaro tajribalarni chuqurroq o'rganish va milliy sharoitga moslashtirish zarur. Mamlakatda qabul qilingan ekologik qonunlar va davlat dasturlari mavjud bo'lsa ham, ularning amaliy ijrosini ta'minlash, ekologik monitoringni kuchaytirish va javobgarlik mexanizmlarini takomillashtirish lozim. Shuningdek, tabiiy va texnogen ekologik ofatlarga qarshi profilaktik choralar ko'rish, prognozlash tizimlarini rivojlantirish va favqulodda vaziyatlarga javob berish strategiyalarini kuchaytirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Yaponiya va Germaniya tajribasidan kelib chiqib, O'zbekistonda ekologik favqulodda vaziyatlarni boshqarishning texnologik imkoniyatlarini kengaytirish, avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini joriy etish hamda favqulodda holatlarga qarshi tayyorgarlik ko'rish jarayonlarini takomillashtirish maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, AQSH va Yevropa mamlakatlarining xususiy sektor va jamoatchilik bilan hamkorlik mexanizmlarini joriy etish O'zbekistonda ekologik boshqaruvni yanada samarali qilish imkonini beradi.

Shuningdek, ekologik muammolarga jamoatchilik e'tiborini kuchaytirish va aholi o'rtasida ekologik madaniyatni oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, aholini ekologik xavflardan ogohlantirish tizimlarini kuchaytirish va ta'lim dasturlariga ekologik fanlarni kengroq joriy etish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda favqulodda ekologik vaziyatlarni bartaraf etish va ularning oldini olish bo'yicha davlat siyosatini takomillashtirish uchun quyidagi yo'nalishlarda islohotlarni amalga oshirish zarur: huquqiy bazani mustahkamlash, ekologik xavf-xatarlarni monitoring qilish tizimini rivojlantirish, xalqaro tajriba va texnologik innovatsiyalardan samarali foydalanish, shuningdek, jamoatchilik va xususiy sektor ishtirokini oshirish. Ushbu chora-tadbirlar atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik barqarorlikni ta'minlash yo'lida muhim qadam bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Beck, U. (1992). *Risk Society: Towards a New Modernity*. London: Sage Publications.
2. Handmer, J. & Dovers, S. (2013). *Handbook of Disaster Policies and Institutions: Improving Emergency Management and Climate Change Adaptation*. London: Routledge.
3. Исламов, А. (2019). *Ўзбекистонда экологик хавфсизликни таъминлашнинг иқтисодий ва ҳуқуқий механизмлари*. Тошкент: Фан.
4. Meadows, D. H., Randers, J. & Meadows, D. L. (2004). *Limits to Growth: The 30-Year Update*. White River Junction, VT: Chelsea Green Publishing.
5. Назаров, А.Н. (2021). *Экологик хавф-хатарларни бошқаришда давлат сиёсатининг ўрни*. Тошкент: Иқтисодиёт институти.
6. Ostrom, E. (1990). *Governing the Commons: The Evolution of Institutions for Collective Action*. Cambridge: Cambridge University Press.
7. Отабеков, Ш.Ш. (2020). *Экологик муаммолар ва уларни ҳуқуқий тартибга солиш*. Тошкент: ТДЮИ нашриёти.
8. Pelling, M. (2011). *Adaptation to Climate Change: From Resilience to Transformation*. London: Routledge.
9. Stermann, J. D. (2012). *Sustaining Sustainability: Creating a Systems Science Approach to Managing Environmental Challenges*. Cambridge, MA: MIT Press.
10. UNDRR (2020). *Global Assessment Report on Disaster Risk Reduction*. Geneva: United Nations Office for Disaster Risk Reduction.